

**O‘QUVCHILARNING KASBIY QIZIQISHLARINI UZVIY VA UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH***Nizomiy nomidagi TDPU**Dotsent v.b To‘lqinova Xolida To‘lqunovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya fanini o‘qitishning uzluksizligi va uzviyligi ta‘minlashda boshlang‘ich va kasb – hunar ta‘limi uzluksizligini ta‘minlashda fanlararo uzviylikni ta‘minlash muammosi yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье обсуждается проблема обеспечения междисциплинарной преемственности в преемственности и преемственности технологии обучения в начальном и профессиональном образовании.

**Annotation:** This article discusses the problem of ensuring interdisciplinary continuity in the continuity and continuity of teaching technology in primary and vocational education.

**Kalit so‘zlar:** Modernizatsiyalash, uzluksiz ta‘lim, izchillik, fanlararo aloqalar, umummehnat ko‘nikma va malakalari, texnologiya.

**Ключевые слова:** Модернизация, непрерывное образование, системность, межпредметные связи, общетрудовые навыки и компетенции, технология.

**Keywords:** Modernization, continuing education, consistency, interdisciplinary relations, general skills and competencies, technology.

Uzluksiz ta‘lim tizimi ta‘lim uzviyligiga asoslangan bo‘lib, buning natijasida barcha ta‘lim turlari orasida muayyan izchillik ta‘minlanishini taqozo etadi. Bu jarayonni amalga oshirish nafaqat ta‘lim turlari orasida, balki har bir ta‘lim turlarida o‘qitiladigan fanlarning sinflar kesimida ichki (mavzulararo, boblararo) uzviyligi, shuningdek, tashqi (fanlararo) uzviyligining ta‘minlanishini ham nazarda tutadi. Ma‘lumki, bu o‘quv dasturlari uzluksiz ta‘limning asosiy bo‘g‘inlari bo‘lgan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va akademik litsey, kasb-xunar kollejlari ta‘lim jarayonining mazmuni va yangi yaratiladigan darsliklarning mavzularini ifoda etibgina qolmay, balki o‘quv muassasalarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda bo‘lajak yosh mutaxassislar egallashlari zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining hajmi va darajasini ham belgilab beradi. Maktabdan tashqari ta‘limda texnologiya fanidan olingan bilim, ko‘nikma va malakalar kengaytirish va chuqurlashtirish hamda alohida tushuncha va tasavvurlarni yanada rivojlantirish zarur. Bu esa, har bir o‘quvchining bir ta‘lim turidan ikkinchi ta‘lim turiga ta‘lim mazmuni, shakli va metodlari orasida ketma-ketlik, izchilik, tizimlilik, o‘zaro aloqadorlik hamda uzviylikni ta‘minlash asosida hech qanday qiyinchiliksiz o‘tish mumkinligini e‘tirof etish mumkin. Shunday ekan, har bir ta‘lim turida o‘quv dasturlari uzviyligini ta‘minlash ta‘lim tizimining

uzviyligi va uzluksizligi, ta'lim turlari va bosqichlari uzviyligiga asoslangan holda mavzulararo, fanlararo hamda nazariya va amaliyot uzviyligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi. Ta'lim jarayoni uzviyligini ta'minlash o'qituvchi tomonidan oldindan rejalashtiriladi, o'tiladigan dars uzviyligini ta'minlovchi model yordamida uning metodikasi ishlab chiqiladi. Bu jarayonning umumlashtirilishi, takrorlanishi zarur bo'lgan bilimlarni o'quvchilar bilim darajasini inobatga olgan holda muayyan izchillik asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Jarayonning samaradorligi:

- ta'lim mazmuni uzviyligining ta'minlanganligi;
- har bir o'quvchining bilim saviyasining to'g'ri aniqlanganligi;
- har bir o'quvchining psixik holatini to'g'ri tashhis qilinganligi;
- o'qituvchining har bir o'quvchi uchun maxsus tayyorlanishi;
- o'quvchilarni fanga qiziqтира olinishi;
- o'qituvchining o'z ustida ishlashi va pedagogik mahorati;
- har bir o'quvchi shaxsiy bilimining monitoring qilinishi kabi omillarga bog'liq.

Uzviylik o'ziga xos ta'lim tamoyili sifatida ko'p qirrali tushunchalar sirasiga kiradi. Uni faqat alohida ta'lim mazmuni yoki ta'lim jarayoniga tadbiiq etish bilan uzviylik ta'minlanmaydi. O'quvchi xotirasi va tafakkurida muayyan fan boyicha aniq bilimlar izchilligi, ularning o'zaro aloqadorligi anglanib, uni amaliyotga tadbiiq eta olgandagina o'quvchi yaxlit tushunchaga ega yoki uning mantiqiy birligi (uzviyligi)ni tushungan deb hisoblash mumkin. Pedagogik lug'atlarda "fanlararo aloqalar" tushunchasi o'quv dasturlarining o'zaro moslashuvi sifatida ta'riflanadi. Ta'lim jarayonidagi predmetlararo aloqalar o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtiradi. Uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim uzviyligiga asoslangan bo'lib, u barcha ta'lim bo'g'inlarining izchilligi asosida ta'minlanadi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun nafaqat ta'lim bosqichlari o'rtasida, balki har bir bosqichdagi fanlarning ichki, ya'ni mavzulararo, boblararo uzviyligi, shuningdek, tashqi, ya'ni fanlararo uzviyligi ham ta'minlanishi nazarda tutilishi kerak. Ta'lim amaliyotiga taqdim qilingan ta'lim mazmunining sifatini Davlat ta'lim standarti talablari asosida muntazam tahlil qilish, o'quvchilarning doimiy rivojlanib boruvchi ehtiyojlarini. Ta'lim mazmunining samaradorlik darajasini aniqlash, ta'lim modellarini izchil tarzda yangi-yangi bilim va tushunchalar bilan boyitish, ta'limni tezkor boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish sohasida keng ko'lamlil tadqiqotlarni amalga oshirish taqozo qilinmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ta'lim jarayonini diagnostika qilish hamda davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchi va talabalar bilim, ko'nikma hamda malakalarining sifatini baholash yagona zanjirnitashkil etishga erishish lozim. Ma'lumki, ko'p hollarda o'quv dasturida muayyan bir tushuncha yoki bilimni egallashuchun belgilab qo'yilgan vaqt o'quvchi va talabalarining o'zlashtirish imkoniyatlariga mos kelmaydi. Natijada o'quvchi hamda talabaning vaqti kuchini tejashda nomutanosib holatlar vujudga

keladi. Bu hol, eng avval ta'lim oluvchilar ruhiy imkoniyatlarining bir tekisda rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu o'rinda birinchi navbatda, davlat ta'lim standarti talablari doirasida o'quvchi va talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash asosida ular egallagan ko'nikma, malakalarning o'zaro aloqadorligi, uzviyligi va tadrijiy asosda takomillashib borish jarayonini ilmiy-metodik jihatdan chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi undan talab qilingan birinchi ko'nikmani egallashga nisbatan mazkur ko'nikmalar zanjiridagi ikkinchi, uchinchi va hokazo ko'nikmalarini egallashga bir qadar kamroq vaqt va kuch sarflaydi. Chunki shaxsga nisbatan rivojlantiruvchi xarakter kasb etgan ta'lim jarayonida ko'nikma va malakalarning o'zaro interpretatsiyalashuvi vujudga keladi. Faqatgina, o'zaro interpretatsiya holatiga kirgan bilim, ko'nikma va malakalargina uzluksiz tarzda bir-birini boyitish mumkin. Ta'lim mazmunining turli mazmuni darajalarini belgilash jarayonida o'zaro interpretatsiya holatida turgan bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinishini nazarda tutish ta'lim mazmuni doirasida uzluksizlikni ta'minlash, o'quvchi hamda talabalarning vaqtini oqilona rejalashtirish yo'llari va qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu o'rinda davlat ta'lim standartlari doirasida bilim, ko'nikma va malakalarning rivojlanib, mustahkamlanib borishi, ya'ni evolyusiyasi bilan bog'liq tarzda belgilab qo'yiladigan minimum talablarning ham muntazam ortib borishi pedagogik tadqiqotlarda o'z ifodasini topmog'i shart. Aks holda, ta'lim o'quvchi shaxsiga nisbatan rivojlantiruvchi xarakter kasb eta olmaydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, uzviylikni ta'minlash nuqtai nazaridan o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalari nazoratlarini olib borish monitoringi alohida tadqiqotni talab etadi.

O'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini uzviy va uzluksiz rivojlantirish bosqichlari.

№	Uzviy va uzluksiz	Kasbiy qiziqishlari
1	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida mavzuli-rolli o'yinlar, o'yin-mehnat, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, vaqti xushlik, sayr-tomosha o'yinlari, majmual bayram o'yinlari orqali dastlabki kasbiy qiziqishlari shakillantiriladi
2	Umumiy o'rta ta'lim (1-4 sinflar)	Umumiy o'rta ta'lim maktab 1-4 sinf o'quvchilarining aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari, mustaqil ijodiy fikrlash, qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirish orqali kasbiy qiziqishlar shakillantiriladi.

3	Umumiy oʻrta taʼlim (5-9 sinflar)	Umumiy oʻrta taʼlim maktablari 5-9 sinf oʻquvchilarining kasbiy qiziqishlari boʻyicha ular tomonidan yaratilgan turli ijodiy ishlar, anketa – soʻrovnoma, testlar orqali aniqlanadi. Kasb turlari, kasbga qoʻyiladigan talablar, kasblar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar mutasaddi xodimlar tomonidan konferensiya, davra suhbatlari, ilgʻor kasb vakillari bilan uchrashuvlar singari tadbirlar orqali oʻquvchilarning kasblarga boʻlgan qiziqishlari shakllantiriladi.
4	Professional taʼlim (10-11 sinflar), kasb hunar maktablari akadem litsey va texnikumlar	Professional taʼlim maktab 10-11 sinf oʻquvchilari, kasb – hunar maktab oʻquvchilari, akademik litsey hamda texnikum oʻquvchilarining kasbiy qiziqishlari boʻyicha ochiq taqdimotlar, musobaqalar, konkurslar orqali oʻquvchilarga innovatsion loyihalarni taqdim etish, texnologiya fanini ommalashtirish uchun mashhur ixtirochilar, olimlar, biznesmenlar ishtirokida muntazam tanlovlar oʻtkazish. Oquvchilarni kasblarga yoʻnaltirish ularni kelgusida oʻzlari qiziqqan soha boʻyicha kasb egallashlariga toʻgʻri yoʻllanma berish maqsadida tegishli konferensiyalarni tashkil etiladi va shu orqali oʻquvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantiriladi.
5	Oliy taʼlim (bakalavr, magistratura)	Oliy taʼlimda tahsil olayotgan talabalari “Texnologik taʼlim” bakalavriat darajasi uchun taʼlim dasturlarini oliy taʼlimning davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturidan kelib chiqqan holda texnologiya fanini talabalarga bevosita kasblarni oʻrgatish, maxsus kompetensiyalarga hamda texnologiya sohasida tajribaga ega kasb ustalarini tayyorlash tizimini yoʻlga qoʻyish, texnologiya sohasida tajribaga ega kasb ustalarini qoʻllab-quvvatlash tizimini yaratish orqali shakllantiriladi.
6	Oliy taʼlimdan keyingi taʼlim (stajor tadqiqotchi,	Oliy taʼlimdan keyingi taʼlim jarayonida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlar, turli ilmiy

	tayanch doktorantura, mustaqil tatqiqotchi)	innovatsion loyihalar, yaratilayotgan nashr ishlarida o`quvchilarni kasbiy qiziqishlarini hozirgi zamon tendensiyalariga asoslangan holda olib bopradilar.
7	Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash	Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash orqali texnologiya fanining mazmun hamda metodlarini takomillashtirish umumiy ta'lim uchun texnologiya fani bo'yicha ishlab chiqilayotgan o'quv me'yoriy hujjatlar hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va resurslarini, masofadan o'qitish texnologiyasini qo'llash va o'quvchilarning fan bo'yicha rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilishni inobatga olgan holda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash, o'qituvchilar uchun qo'shimcha kasbiy ma'lumotlar olish orqali shakllantiriladi.

Umumiy ta'lim tizimida uzviylikni to'la taminlash tamoyillarga asoslangan holda ish yuritish talab etiladi:


- umum ta'lim fanlari bo'yicha fan dasturlarining talablariga javob berishi;
- ijtimoiy buyurtmaga rozi bo'lish;
- milliy g'oya, milliy mafkuraga oid nazariy bilimlarning aks etishi;
- o'quvchilar bilish faoliyati yaxlitligini ta'minlay olishi;
- dasturda vertikal va gorizontal uzviylikning ta'minlanganligi;
- dastur mazmuniga kiritilgan mavzular o'quvchilar dunyoqarashi, bilim olishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish yuzasidan tanlanganligi;
- dasturdagi mavjud yuklamalarning o'quvchilar psixo-fiziologik xususiyatlariga muvofiqligi;
- fanlararo aloqani amalga oshirishda o'qitishni integratsiyalashga oid ko'rsatmalarning dasturda o'z ifodasini topganligi;
- dasturda axborot texnologiyalarini qo'llashga oid ko'rsatmalarning hisobga olinganligi;
- dastur materiallarining oddiydan murakkabga tamoyili asosida joylashtirilishi;
- dastur materiallarining tematik, muammoli tematik, tarixiylik tamoyillari asosida guruhlashtirilganligi.

Mazkur tamoyillarni amalga oshirishda fan o'qituvchilari quyidagi didaktik talablarga e'tibor berishi muhim hisoblanadi:

- ta'lim jarayonini aniq maqsad asosida tashkil etish;
- ta'lim jarayonini tizimli, uzviy, izchil tashkil etishga erishish;
- ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olish;
- ta'lim jarayonida demokratik tamoyillar hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustivorligiga tayanish;

- ta'lim jarayonida ko'rgazmalilikka alohida e'tibor berish;

- har bir mavzu mohiyatini ochib beruvchi hamda o'quvchilarni ijodiy izlanishga chorlaydigan ta'lim shakli va metodlaridan foydalanish va boshqalar. Uzviylikni ta'minlashning yaxlit va tizimli yondashuvida pedagogik axborot texnologiyalaridan, pedagogikaning eng ilg'or tajribalaridan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun tayyorlanadigan o'quv rejalarga qo'yiladigan didaktik talablarda: umumiy o'rta ta'limning majburiy ikki bosqichi nazarda tutilishi lozim: birinchi bosqich - boshlang'ich ta'lim (7 yoshdan 10 yoshgacha). Bu bosqichda shaxsni shakllantirishning negizi yaratiladi. Bu yoshdagi bolalar rivojlanishi juda shiddat bilan borishi ko'zda tutilishi zarur. Ikkinchi bosqich - o'rta ta'lim (11 yoshdan 15 yoshgacha). Bu bosqichda o'smirlarda kelajakda kasb-hunar ta'limi kollejlari yoki akademik litseylarda ta'lim olishni davom ettirishi uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar majmuini shakllantirish ko'zda tutiladi. O'quv rejalarni tayyorlashda bu yoshdagi bolalarga xos ruhiy va jismoniy xususiyatlarning g'oyat beqarorligi hisobga olinishi shart. Shuningdek, o'quv rejalarni ishlab chiqishda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan predmetlarga qo'yiladigan Davlat ta'lim standartlari ko'rsatgichlariga tayanish zarur deb ko'rsatilgan. Qabul qilingan tayanch o'quv rejasidagi mehnat ta'limi mazmunini o'zlashtirishga esa 10 dan 9 ta bola umumiy o'rta ta'lim maktabidan keyin ixtiyoriy majburiy ta'lim turini kasb-hunar kollejlari davom ettirishlari lozim bo'lgan bugungi kunda ular egallashlari zarur bo'ladigan umum mehnat va dastlabki kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ongli ravishda olib borishni talab etadi. Boshlang'ich sinflar «Texnologiya» fani mazmuni va uni umumiy o'rta ta'limdagi uzluksizligi va uzviyligida ham bir qancha muammolar mavjud.



Boshlang'ich maktablardagi (1-4 sinf) mehnat ta'limi maqsadi: oddiy mehnat turlari va mehnat jarayonlari hamda oddiy mehnat qurollari bilan tanishtirishni, oddiy ish harakat usullarini to'g'ri bajarishni o'rganishni, ularni rejalashtirishni, ish o'rin tartibini saqlash, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kabi boshlang'ich mehnat hislatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. 5-9 sinflarda esa o'quvchilarda umummehnat ko'nikma va malakalari shakllantiriladi, ularning qiziqish va qobiliyatlariga ko'ra kasbiy moyilliklari, ixtiyoriy majburiy ta'lim yo'nalishini tanlashga yo'naltirilgan xizmatlar, umummehnat madaniyati shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Mehnat faoliyatining turli sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishlariga imkon yaratiladi, ularni xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalariga o'rgatiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida ixtiyoriy majburiy ta'lim turini kasb-hunar sohasini yo'nalishini (boshqa o'quv predmetlari: tabiiy ilmiy, ijtimoiy gumanitar,

filologiya, matematika va hakazolar. Asosan akademik litseylarda tahsil yo‘nalishini ixtiyoriy majburiy ta’limini tanlashga tayyorlasa, mehnat ta’limi esa asosan kasb-hunar kollejarida kasb-hunar soha yo‘nalishiga tayyorlashga xizmat qiladi, nisbatan: 10 ta o‘quvchidan 1 tasi litseyda o‘qishni davom ettirsa, 9 tasi kasb-hunar kollejarida mutaxassislik egallaydilar) tanlashga tayyorlashning negizi bo‘lib, uning mazmuni asosan quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: V - IX sinflarda keng ko‘lamda ishlatiladigan turli xil oddiy materiallar (qog‘oz, karton, penaplet, plastilin, gazlama, simlar va boshqalar) bilan tanishtirish, ulardan o‘yinchoqlar va oddiy buyumlar yasash, xalq hunarmandchiligi to‘g‘risida boshlang‘ich tushunchalar berish, o‘quvchilarni o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga odatlantirish, uy-ro‘zg‘or mehnatini pazandachilikka dastlabki elementlarini shakllantirish, turli xildagi shakllar va buyumlarni yasashni o‘rganish va boshqalardan iborat. Bu davrda mehnat ta’limiga ajratilgan o‘quv soatini yana 1 soatga oshirish maqsadga muvofiq. Chunki, bir soat davomida bajariladigan ishlar to‘g‘risida nazariy ma’lumotlar berilsa, keyingi soatda esa aytilgan ish-harakat usullari amalda bajariladi, buyumlarni yasash yo‘llari, metodlari o‘rganiladi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Muslimov N.A. Bulajak mehnat ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish.-T.: fan, 2004 yil.
2. Tulqinova X.T. Development of pupil’s professional interests based on an innovative approach // Current research journal of pedagogics. Vol. 04 issue 02, 2023. P. 55-57. ISSN 2767-3278. SJIF. Impact Factor 7.266. DOI-10.37547/crjp: <https://masterjournals.com/index.php/crjp/article/view/1247>
3. Tulqinova X.T. Continuity and continuity of development of pupil’s professional interests // Frontline social sciences and history journal. Vol. 03 issue 01, 2023. P. 58-62. ISSN 2752-7018. SJIF Impact Factor 2021: 5.376, 2022: 5.561 <https://www.frontlinejournals.org/journals/index.php/fsshj/article/view/346>
4. Tulqinova X.T. Improvement of “technology” by the method of innovative approach // International conference on Multidisciplinary studies in education and applied sciences. Istanbul, April 27 th 2022: conferencezone.org
5. Tulqinova X.T. Technology in education electronics-didactic occupation means without applying the effectiveness of the organization // International Multidisciplinary scientific conference on ingenious global thoughts hosted from Kuala Lumpur, Malaysia. May 31st 2021: <https://conferencepublication.com>
6. Xolida, T. T., & Maftuna, N. (2022, May). ENSURING THE CONTINUITY OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN TECHNOLOGY. In *Conference Zone* (pp. 81-85).
7. Xolida.T. T., & Maftuna, A. (2022, May). THE ROLE OF CLUBS IN CAREER GUIDANCE. In *Conference Zone* (pp. 33-35).



8. Tolqunovna.T.X. (2023). Development of students' professional interests based on an innovative approach. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 19, 157-159.
9. Тулкинова.Х. (2022). Innovatsion yondashuv asosida o 'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4).

